



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil
MAXSUS SON

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

- 5 YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinligining
Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi:
zarurat va istiqbollar
- 11 AZIZOV XUDOYQUL TOJIYEVICH**
Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini
ro'yobga chiqarish – muhim vazifa
- 15 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**
Xalqchil davlat qurish, davlat va jamiyat
boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirishda
fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalari
- 21 AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**
Yangilangan bosh qomusimizda inson huquq
va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida
- 27 SAFAROV DJAXONGIR ISMOILOVICH**
Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar
sharoitida parlament yuqori palatasi faoliyatini
isloh etish: asosiy tendensiyalar va rivojlanish
istiqbollari
- 37 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi
tushunchasining yuridik tahlili
- 43 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Jamoatchilik nazoratining muhim subyekti
sifatida ommaviy axborot vositalarining
konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 46 TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH**
Intellectual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy
himoyasi va uning ahamiyati
- 57 YULDOSHBEKOV AVAZBEK ALISHER O'G'LI**
Fuqarolarning soliqqa oid konstitutsiyaviy
burchlarini ta'minlashda soliq maslahati
institutining o'rni va ahamiyati
- 63 XAYITOV PANJI BUXAROVICH**
Yangi O'zbekistonning energetika tizimini
rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy
asoslari

- 70 DAVLATOVA GULIZA SHAVKAT QIZI**
Halol raqobatni rivojlantirish va monopol faoliyatni cheklashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 75 SHODIYEVA IRISA SOATMUROD QIZI**
Advokatlar maqomi e'tibor markazida
- 79 KAZAKOVA NOZIMA RUSTAM QIZI**
The new constitution of Uzbekistan:
A catalyst for democratic advancement

UDC: 349.6(045)(575.1)

YANGI O'ZBEKISTONNING ENERGETIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Xayitov Panji Buxarovich,
Toshkent davlat yuridik
universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0005-9482-2260
e-mail: pxayitov7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonning energetika tizimini rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va ekologik-huquqiy ta'minlash masalalarining milliy va xalqaro konsepsiyasi va tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish hamda ularni tahlil qilishga oid fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, ekologiya huquqi nazariyasi, Yashil energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va kelajak istiqbollari tizimini yanada takomillashtirish bilan bog'liq eng muhim masalalar tahlil qilingan. Yangi O'zbekistonning energetika tizimini rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va ekologik-huquqiy ta'minlash masalalari energiya huquqi manbalarini tartibga solish muammolari, tabiiy resurslar tizimidagi energiya huquqining milliy va xalqaro ahamiyati, ilmiy tadqiqotlar doirasida undan foydalanish huquqining kelib chiqishi nuqtayi nazaridan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekistonning energetika tizimi, Taraqqiyot strategiyasi, yashil energiya, qayta tiklanuvchi energiya, energiyani tejash, ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslar, barqaror rivojlanish, amalga oshirilayotgan islohotlar, qayta tiklanadigan energiya manbalari, yer osti boyliklari, iqtisodiy rivojlanish, elektr energiyasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, yoqilg'i-energetika resurslari, energiya xavfsizligi, issiqlik energiyasi, qonun, global ekologik muammolar.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Хайитов Панжи Бухарович,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье были высказаны мнения по совершенствованию и анализу нормативно-правовых актов и конституционно-правовых основ, касающихся национальной системы и международной концепции эколого-правового обеспечения развития энергетической системы Нового Узбекистана. Также были проанализированы важнейшие вопросы, связанные с теорией экологического права, правовыми основами развития «зелёной» энергетики и дальнейшим развитием системы с перспективами на будущее. Конституционно-правовые основы развития энергетической системы Нового Узбекистана и вопросы её эколого-правового обеспечения были изучены в рамках научных исследований с точки зрения проблем регулирования источников энергетического права, национального и международного значения энергетического права в природно-ресурсной системе, происхождения права пользования энергией.

Ключевые слова: энергетическая система Нового Узбекистана, стратегия развития, «зелёная» энергия, возобновляемая энергия, энергосбережение, экологическая безопасность, природные ресурсы, устойчивое развитие, проводимые реформы, возобновляемые источники энергии, недра, экономическое развитие, электроэнергия, охрана окружающей среды, топливно-энергетические ресурсы, энергетическая безопасность, тепловая энергия, право, глобальные экологические проблемы.

CONSTITUTIONAL AND LEGAL BASES FOR THE DEVELOPMENT OF THE ENERGY SYSTEM OF NEW UZBEKISTAN

Khaitov Panji Bukharovich

Independent researcher of Tashkent State University of Law

Abstract. *In this article, opinions were expressed on improving the constitutional and legal framework for the development of the energy system of the New Uzbekistan and on the improvement and analysis of regulatory legal documents related to the national and international concept and system of issues of environmental and legal provision. Also, the most important issues related to the theory of environmental law, the legal framework for the development of green energy, and the further development of the system of future prospects were analyzed. The constitutional and legal basis for the development of the energy system of the new Uzbekistan issues of environmental and legal provision were studied from the point of view of the problems of regulating the sources of energy law, the national and international significance of energy law in the Natural Resources System, and the origin of the right to use it in the framework of scientific research. The constitutional and legal basis for the development of the energy system of New Uzbekistan in the energy sector is carried out in certain forms and methods. Legal relations related to the constitutional and legal foundations of the development of the energy system of New Uzbekistan, the content of norms aimed at their regulation, the essence and problems of their implementation, the constitutional and legal foundations of the development of the national and international energy consumption system, and the powers of the governing bodies of New Uzbekistan are implemented in the following cases.*

Keywords: *Energy System of New Uzbekistan, Development Strategy, green energy, renewable energy, energy conservation, environmental security, natural resources, sustainable development, ongoing reforms, renewable energy sources, underground assets, economic development, electricity, Environmental Protection, fuel and energy resources, energy security, thermal energy, law, global environmental problems.*

Kirish

Elektr energetikasi tarmogʻi jamiyat hayotida muhim sanalgan tayanch sohalardan biri hisoblanadi. Shu bois keyingi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish, energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish boʻyicha keng koʻlamli va izchil islohotlar amalga oshirilib, energetika sohasini rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi.

Shuningdek, sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan qator qonunlar, xalqaro

bitimlar, farmon va qarorlar qabul qilindi. Zamonaviy Oʻzbekistonni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri koʻp jihatdan energiya xavfsizligiga erishish bilan bogʻliq boʻlgan mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy barqarorligi hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga koʻra [1], tabiiy resurslarga (zaxiralarga) yer, yer osti boyliklari, suv, oʻsimlik dunyosi va hayvonot dunyosi kiradi. Lekin bu roʻyxat toʻliq emas. Shunday boʻlsa ham, ushbu resurslarning vujudga kelishi tabiiy boʻlib, in-

son faoliyati natijasida yuzaga kelmagan. Bu esa, o'z o'rnida, mazkur tushunchaga tabiiy vujudga kelish asosiga ega bo'lgan energiya manbalari (energetik resurslar) kiritish mumkin degani. Shu bilan birga, ushbu ro'yxatga qazib olib bo'lingan neft, gaz, ko'mir va boshqa tabiiy boyliklarni kiritish mumkinmi, degan savolga aniq javob topish mushkul.

Qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi qonun yer osti boyliklari davlat mulki ekanligini ta'kidlaydi. Yer qa'ridan olingan foydali qazilmalar va boshqa resurslar davlat mulki, mahalliy hokimiyat mulki va boshqa shaxslar mulki bo'lishi mumkin. Qonun hujjatlari mazmunini taqqoslash asosida energetik resurslar tabiiy resursga muvofiq bo'lmagan, lekin ularga o'xshash jismlar va hodisalar majmuasini tashkil etishi haqida xulosa qilish mumkin. Bu esa milliy huquqiy tizim elementi sifatida energetik huquqni tabiiy resurs huquqidan farqlash uchun dalil bo'ladi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi 22-maqсадida quyidagi vazifalar belgilangan [2]:

- milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish;

- energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarining ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda, erkinlashtirib, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste'mol normalarini kiritish;

- iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft-gaz mahsulotlari uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash;

- mis sanoati klasterini tashkil etish orqali mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ikki baravar ko'paytirish hamda 8 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish uchun asos yaratish;

- kimyo va gaz kimyosi sohasini rivojlantirish hamda tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 milliard AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish.

Taraqqiyot strategiyasining 24-maqсadi esa quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish;

- 2026-yilga kelib, elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kVt. soatga oshirib, jami 100 milliard kVt. soatga yetkazish;

- 2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash;

- O'zbekiston energetika tizimining qo'shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta'minlash;

- sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish;

- uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish hamda energiya samaradorligini oshirish;

- elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bo'yicha choralar ko'rish;

- iqtisodiyot tarmoqlari havoga chiqaradigan zararli gazlar hajmini bir-birlik yalpi ichki mahsulot hisobida 10 foizga qisqartirish.

Elektr energetikasi tizimi jamiyat hayotida muhim sanalgan tayanch sohalardan biri hisoblanadi. Shu bois keyingi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlil va izchil islohotlar amalga oshirilib, energetika sohasini rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi.

Shuningdek, sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan qator qonunlar, xalqaro bitimlar, farmon va qarorlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlarda yangi quvvatlarni ishga tushirish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish va ularning ulushini elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmining 25 foizidan ko'prog'iga yetkazish, qayta tiklanadigan energiya manbalari va ulardan olingan elektr energiyasini tarmoqqa yetkazib berishning maxsus xarid tarifini (yashil tarif) joriy etish belgilandi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini amaliyotga keng tatbiq etish tabiiy resurslarni tejash va atmosferaga zararli chiqindilar miqdorini kamaytirish imkonini beradi.

E'tiborli jihati shundaki, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini oshirish yagona energetika tizimini ularni qabul qila oladigan darajaga o'zgartirish bilan bir vaqtda amalga oshirilmoqda. 2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash konsepsiyasiga [3] asosan, 5 GVt quyosh fotoelektr va 3 GVt shamol elektr stansiyalari qurish orqali sanoat ko'lamidagi qayta tiklanuvchi energiya manbalari elektr stansiyalari miqdorini oshirish maqsad qilingan.

Joriy yilning 10-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida iqtisodiyot tarmoqlari, aholi va ijtimoiy soha obyektlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish chora-tadbirlari yuzasidan videosektor yig'ilishi o'tkazildi [4].

Yig'ilishda davlatimiz rahbari O'zbekistonda bir yilda o'n milliard dollarlik elektr va gaz iste'mol qilinayotganligi, agar buning o'n foizini iqtisod qilishni o'rgansak, bu bir milliard dollarni boshqa ehtiyojlar uchun sarflashimiz mumkinligini ta'kidladilar. Shuningdek, hokim va vazirdan tortib mahalla raisigacha – barcha darajadagi rahbarlar bu masalaning qanchalik muhimligini tushunib yetishi, bu borada o'z mas'uliyatini his qilgan holda, energiya sarfini qisqartirish bo'yicha tashabbus ko'rsatishi, hisob-kitobli bo'lishi

lozimligini alohida aytib o'tdi. So'nggi yillardagi islohotlar natijasida aholining elektr ta'minotidagi uzilishlar ancha qisqarganini ham qayd etdi.

Yig'ilishda kuz-qish mavsumida aholining gazga bo'lgan ehtiyoji keskin oshishi sababli barcha yuklama elektr tarmoqlariga tushayotganligi, hozirgi kunda aholining kamida 2-3 milliard kilovatt-soat elektr energiyasiga qo'shimcha talabi mavjud ekanligi, kelgusi besh yilda esa bu ehtiyoj yana 10 milliard kilovatt-soatga oshishi masalasi aytib o'tildi.

Energiyani ishlab chiqarish, yetkazib berish va iste'mol qilishda samarali texnologiyalardan foydalanish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik va energiyadan foydalanish odatlarini boshqarish orqali energetika tizimidagi yuklamalar, xususan, infrastruktura-ga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish mumkin. Bunday vaziyatda eng samarali yo'l – muqobil energiyadan foydalanishni ko'paytirishdir.

Yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) qurilmalaridan foydalanishni rivojlantirish ekologik muammolarning oldini olish bilan birga, qazilma energiya resurslariga bo'lgan talab o'rnini qoplaydi.

Sohada erishilayotgan yutuqlar bilan bir qatorda, hududlarda o'tkazilgan o'rganishlarga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi past darajada ekanligi ma'lum bo'ldi. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish yuzasidan investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar bugungi kunda yetarli darajada emas.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi resurslar va energiya tejoychi ilg'or texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Shu sababdan yurtimizda muqobil energiya uskunasini o'rnatgan aholi va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim joriy etilishi ko'zda tutilmoqda.

Bunda aholi va tadbirkorlarga o'rnatilgan quyosh va shamol elektr uskunalari uchun quvvatiga qarab 15 million so'mgacha, suv isitish qurilmasi uchun esa 2 million so'mgacha kompensatsiya to'lanishi yoki uskuna qiymatini 3 yil ichida foizsiz bo'lib to'lash imkoniyati yaratiladi. Ushbu tizim Energetika vazirligining maxsus jamg'armasi orqali joriy etilishi belgilanmoqda.

Energetika sohasida elektr va issiqlik energiyasi, ko'mir ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish, shuningdek, neft, gazni qazib olish, ularni qayta ishlash, tashish, tarqatish, sotish hamda ulardan foydalanish jarayonlarining davlat tomonidan tartibga solinishi Energetika vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Jumladan:

- energetika sohasini muvofiqlashtirish;
- energiya manbalarini qazib olish va ishlab chiqarish jarayonlariga xususiy kapitalni jalb qilish;
- raqobatbardosh biznes muhitini shakllantirish, energiya manbalarini ishlab chiqarishni ko'paytirish va diversifikatsiya qilish maqsadida tarif siyosatini takomillashtirish;
- energetika sohasida zamonaviy korporativ boshqaruv, shu jumladan, Jahon bankining ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishni nazarda tutuvchi taklifini hisobga olgan holda joriy etish.

Bugungi kunda mamlakatimiz Prezidentining tashabbusi bilan energetika sohasini isloh qilish maqsadida "O'zbekenergo" AJda tubdan qayta qurish amalga oshirildi. Ushbu AJ negizida uchta: "Issiqlik elektr stansiyalari", "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" va "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etildi. Qayta tashkil etishdan maqsad elektr energiyasini ishlab chiqarish, tashish, taqsimlash va sotishni yo'lga qo'yishning zamonaviy usullariga o'tishdir.

2019-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi [5], shuningdek, "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonunlarining qabul qilinishi mamlakat elektr energetikasi sohasida muhim qadam bo'lib, bu qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasidagi loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish uchun huquqiy asos yaratadi.

2019–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish konsepsiyasi [6] ishlab chiqildi.

Energetika tizimini vazirlik va idoralar bilan birgalikda xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot Banki)ning texnik ko'magida mamlakatni 2020–2030-yillarda yoqilg'i va energiya bilan ta'minlash konsepsiyasi va xalqaro konsultant – "Mott-MacDonald" (Buyuk Britaniya) bilan birgalikda O'zbekistonda elektr energiyasi, shu jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasini uzoq muddatli rivojlantirish bo'yicha bosh reja (MasterPlan) ishlab chiqildi.

Shuningdek, neft va gaz tizimini keng miqyosda qayta tashkil etishning eng muhim jarayoni boshlandi. Bu borada, birinchi navbatda, "O'zbekneftgaz" tarkibidan chiqarilib, aksiyalari davlat ixtiyoriga o'tkazilayotgan "O'ztransgaz"ni istisno etganda, "O'zbekneftgaz"ga qo'shma kompaniyalarni birlashtirish yo'li bilan boshqaruv tizimidagi ortiqcha oraliqlar qisqartirildi.

2020–2030-yillarda O'zbekiston yoqilg'i-energetika ta'minoti strategiyasi va 2019–2021-yillarda elektr energetikasini kompleks raqamlashtirish dasturini ishlab chiqish boshlangan bo'lib, unda korxonalar resurslarini rejalashtirishni avtomatlashtirish (ERP) hamda dispetcherlik nazorati va ma'lumotlarni yig'ish (SCADA) jarayonlari ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda elektr energetika sohasini rivojlantirishning asosiy ustuvor masalala-

ridan biri – bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda, issiqlik elektr stansiyalari (IES), atom energetikasi, qayta tiklanadigan energiya manbalari (QTEM) kabi sohalarda ishlab chiqarish obyektlarini rivojlantirishdir.

Mamlakatda yana bir muhim loyiha – “Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini (ASKUE) joriy etish” hamda “Tabiiy gazni hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi” jadal sur‘atlar bilan amalga oshirilmoqda.

Yaqinda qabul qilingan qonunga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) shartlari asosida bir qator investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha ishlar olib borilyapti.

Energetika vazirligi, shuningdek, energiya tejashni doimiy ravishda rag‘batlantirish, tegishli texnologiyalarni joriy etish va energiya tejashning ahamiyati to‘g‘risida aholining xabardorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ham amalga oshirmoqda.

“O‘zenergoinspeksiya” mutaxassislari-ning fikricha, bugungi kunda har bir uyda yiliga o‘rtacha 400 kVt/soat elektr energiyasini tejash imkoniyati mavjud. Agar har bir oila 400 kVt elektr quvvatini tejasa, respublika bo‘yicha tejalgan elektr quvvati miqdori 1,8 mlrd kVt soatni tashkil qiladi. Shu tarzda tejalgan elektr energiyasi, masalan, Jizzax yoki Sirdaryo viloyatlarini yil davomida elektr energiyasi bilan ta‘minlashga yetadi.

Elektr energetikasi sohasida hozirgi kunda respublikaning ishlab chiqarish quvvati 14,1 ming MVt dan oshadi.

Ushbu ishlab chiqarish quvvatlarining asosiy qismi yoki 85,8 foiz issiqlik elektr stansiyalari hissasiga to‘g‘ri keladi. 2030-yilga kelib, maksimal iste‘mol qilinadigan soatlarda jami elektr quvvati 2018-2019-yillar kuz-qish davridagi 11 ming MVt dan 20 ming MVt ga oshadi. Shu tarzda 2030-yilga kelib, mamlakat energiya sig‘imini qariyb 1,8 baravar oshirishga to‘g‘ri keladi.

Elektr energetikasi sohasida 2019–2030-yillarga mo‘ljallangan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish dasturiga muvofiq, 2030-yilda birgina issiqlik elektr stansiyalarida 15,6 GVt quvvatga ega bo‘lgan yangi va modernizatsiya qilingan ishlab chiqarish quvvatlari foydalanishga topshiriladi.

Shu bilan birga, issiqlik elektr stansiyalarida quvvati 6,4 GVt ga teng bo‘lgan jismonan eskirgan ishlab chiqarish quvvati va uskunalarni foydalanishdan chiqarish taxmin qilinyapti. Shu tarzda 2030-yilga borib, ularning o‘rnatilgan quvvati 78,9 ming MVt ga yetadi (ya‘ni 6,8 ming MVt ga oshadi).

Bugungi kunda 2030-yilgacha bo‘lgan davrda energetika tizimining ishlab chiqarish quvvatini oshirish maqsadida Energetika vazirligi yirik investitsiya loyihalari ustida ishlamoqda. Jumladan:

- umumiy quvvati qariyb 10 GVt bo‘lgan zamonaviy energiya bloklari qurish (Sirdaryo, Navoiy, Tolimarjon, Taxiatoş, To‘raqo‘rg‘on issiqlik elektr stansiyalari va boshqalar);

- umumiy quvvati 1,9 GVt ga teng GES va 2,4 GVt ga teng AES qurish;

- qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanadigan elektr stansiyalarini qurish, quyosh va shamol elektr stansiyalarining umumiy ulushini 21 foizgacha yetkazish;

- gaz-turbina qurilmalar yoki umumiy quvvati taxminan 3 GVt bo‘lgan aviatsiya gaz turbinalari bazasida manevrli ishlab chiqarish quvvatini qurish.

Ushbu sa‘y-harakatlarning barchasi O‘zbekistonning energiya xavfsizligini ta‘minlash va jadal rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining energetika xavfsizligini ta‘minlash, iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat aholisini yoqilg‘i-energetika resurslari bilan barqaror ta‘minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng targ‘ib qilish va rivojlantirishga qaratilgan yoqilg‘i-energetika tarmog‘ida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Yoqilg'i-energetika tarmog'ida investitsiya loyihalari amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, energiya resurslarini qazib olish va ishlab chiqarish jarayonlariga xususiy kapitalni faol jalb qilish, xalqaro moliya institutlari, kompaniyalar, banklar va boshqa tuzilmalar bilan hamkorliklar yo'lga qo'yiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, energetika sohasiga korporativ boshqaruvning zamonaviy usullari, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda boshqaruv, hisobga olish va nazoratning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishga ko'maklashish, shu asosda energetika sohasida boshqaruv samara-

dorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, energetika tarmog'i tashkilotlari moliya-xo'jalik faoliyatining shaffofligini ta'minlash bugungi kunda energetika sohasida kechiktirib bo'lmaydigan ishlardan sanaladi. Qo'shimcha qilib aytganda, muqobil energiya manbalaridan foydalanish atrof-muhitga chiqarilayotgan zararli chiqindilarni ham kamaytirish imkonini beradi.

Energetika sohasida muhandis-texnik va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha tizimli ishlarni tashkil qilish ham maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
4. 2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash konsepsiyasi.
5. 2023-yilning 10-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida iqtisodiyot tarmoqlari, aholi va ijtimoiy soha obyektlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi.
6. 2019–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish konsepsiyasi.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ergashev Ikrom

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 10,0.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: .

TDYU tipografiyasida chop etildi.